

**YANGI DAVR TARAQQIYOTI SARI: PREZIDENT MUROJAATNOMASINING
USTUVOR YO`NALISHLARI .**

Boqiyeva Marg'uba Toshmatovna

*Oliy talim fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent shahar Yuridik texnikumi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Prezident murojaatnomalarining Yangi O'zbekiston (YO') ustuvor yo'nalishlariga asosan inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, davlat boshqaruvini isloh qilish, iqtisodiyotni rivojlantirish, ta'lim, tibbiyot, yoshlar va xotin-qizlar muammolarini hal etish kabi muhim sohalarni qamrab oladi, bu esa mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab, yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan. Murojaatnomalar har yili yangi vazifalar va dolzarb muammolarni ko'rib chiqib, mamlakatning keyingi rivojlanishiga yo'naltirilgan yirik loyihalarni belgilab beradi. Shu yo'nalishdadi barcha ma'lumotlarni keng qamrovda yoritib beradi .*

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, murojaatnoma, Oliy majlis, ta'lim, tibbiyot, sport, mahalla, hamjihatlik, taraqqiyot strategiyasi .*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются приоритетные направления Посланий Президента Нового Узбекистана (НУЗ), охватывающие такие важные области, как защита прав и интересов человека, реформа государственного управления, экономическое развитие, образование, медицина, решение проблем молодежи и женщин, что знаменует собой новый этап в развитии страны и направлено на построение Нового Узбекистана. В Посланиях ежегодно рассматриваются новые задачи и актуальные проблемы, а также определяются основные проекты, направленные на дальнейшее развитие страны. В статье всесторонне представлена вся информация по данной тематике.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, призыв, Олий Меджлис, образование, медицина, спорт, соседство, солидарность, стратегия развития.*

Annotation: *This article examines the priority areas of the Presidential Addresses to the New Uzbekistan (NUZ), covering such important areas as protecting human rights and interests, public administration reform, economic development, education, healthcare, and addressing youth and women's issues. These addresses mark a new stage in the country's development and are aimed at building a New Uzbekistan. Each year, the Addresses address new challenges and pressing issues, identifying key projects aimed at furthering the country's development. This article provides a comprehensive overview of these topics.*

Key words: *New Uzbekistan, appeal, Oliy Majlis, education, medicine, sports, neighborhood, solidarity, development strategy.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlis va ko'p millatli xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimiz taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqich boshlanganini yaqqol namoyon etdi.

Ushbu muhim siyosiy hujjat Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida olib borilayotgan izchil islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, xalq manfaatlarini ustuvor qo'yishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Barchamizga ma'lum, 2025-yil 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlisga va ko'p millatli xalqimizga navbatdagi murojaatnoma yo'llandi.

Davlatimiz rahbarining mazkur chiqishi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi keng ko'lamlil islohotlarni yanada jadallashtirishga xizmat qiladigan muhim siyosiy dastur sifatida e'tirof etildi.¹⁶ Unga ko'ra, yangi yilning nomida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun alohida davlat dasturi qabul qilinadi.

Ta'kidlanishicha, ushbu dasturda yurtimizdagi 9 mingdan ziyod mahallani, avvalo, mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini topadi. "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda hal qiluvchi bosqichga qadam qo'ymoqdamiz. Bu yo'ldagi ishlarimiz har bir soha va tarmoqda chuqur transformatsiyani talab qiladi.

Maqsadimiz aniq: yaqin yillarda daromadi o'rtadan yuqori mamlakatlar qatoriga kirish. Farg'ona vodiysidan Orolbo'yigacha, Zarafshon vohasidan Qashqadaryo va Surxondaryogacha, Toshkentdan tortib, Jizzax va Sirdaryogacha – yurtimizning qaysi hududida yashamasin, har bir fuqaromiz bugundan boshlab islohotlar natijasini kundalik hayotida yanada ko'proq his qilishi kerak. Shuning uchun, kirib kelayotgan 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini – barcha-barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi", – dedi prezident.¹⁷

2022-2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI

INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH

1-maqсад: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish.

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish.

¹⁶ <https://gov.uz/oz/payshanba/news/view/118347>

¹⁷ <https://uz24.uz/uz/articles/prezident-25-12-26>

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish.

Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta'minlash, bank-moliya, tomorqa, yer, chorvachilik va parrandachilik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.¹⁸

2. Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish masalasi

Ikkinchi ustuvor yo'nalish – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish. Prezidentimizning ta'kidlashicha, raqobat kuchaygan sharoitda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlar bozor o'rniga ega bo'ladi. 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollarga oshirish uchun iqtisodiyotning barcha sohalarini texnologik o'sishga o'tkazish zarur. 2026-yilda 50 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan. Investitsiyalar yuqori texnologiyalar transferi va mahalliy ishchilarni o'qitish uchun sarflanadi.

3. Ichki bozorda talabni rag'batlantirish Prezidentimiz uchinchi ustuvor yo'nalish – ichki bozorda talabni rag'batlantirishga to'xtaldi. Bozorlarimizdagi to'kinlik, narx-navo barqarorligi va aholi iste'mol talabi ortishi turmush sifati yaxshilanganini ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasining pastligi va kam daromadli oilalarga beriladigan arzon kreditlar aholining xarid qobiliyatini ikki karra oshirdi.

4. Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish

Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish kelgusi yil uchun to'rtinchi ustuvor yo'nalishdir. Yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi avtomatlashtiriladi, 50 foizi esa yangi malakalar talab qiladi.

5. Ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish

Beshinchi ustuvor yo'nalish – ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish. Yirik korxonalariga zararli moddalar tashlanmalarini monitoring qilish uchun 100 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi. Toshkent shahri va viloyatidagi ko'mir va gazda isitiladigan issiqxonalar filtrsiz qozonxonalardan voz kechib, markazlashgan qozonxonalarga o'tkaziladi. 200 gektardan kam bo'lmagan agroklasterlar tashkil etiladi, issiqxonalariga subsidiya beriladi.

6. Zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi islohotlari

Oltinchi ustuvor yo'nalish – zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi islohotlari davom ettiriladi. 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi

¹⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>

yangilanadi, barcha davlat idoralarining xizmatlari, funksiyalari va ma'lumot tizimlari yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi. Murojaatlar, ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini sun'iy intellekt nazorat qiladi, korrupsiyadan xoli ekotizim yaratiladi.¹⁹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://gov.uz/oz/payshanba/news/view/118347>
2. <https://uz24.uz/uz/articles/prezident-25-12-26>
3. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>
4. <https://uz24.uz/uz/articles/prezident-25-12-26>

¹⁹ <https://uz24.uz/uz/articles/prezident-25-12-26>